| "YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT .....                                                                                                      | 984 |
| Ibragimova Saodat Abdumo'minovna                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                                                                         |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI .....                                                                                          | 990  |
| Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna                                                                                                                                                                          |      |
| IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....                                                                                                                           | 995  |
| Davlatova Ozoda Olmos qizi                                                                                                                                                                              |      |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....                                        | 1001 |
| Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi                                                                                                                                                                          |      |
| BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI .....                                                                                                                                       | 1006 |
| Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna                                                                                                                                                    |      |
| O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI .....                                                                                                                                        | 1010 |
| Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna                                                                                                                                    |      |
| TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI .....                                                                                                                                     | 1016 |
| Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi                                                                                                                                                                      |      |
| ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ .....                           | 1020 |
| Ходжаева Наргизахон Анатолиевна                                                                                                                                                                         |      |
| FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT .....                                                                                                                                              | 1028 |
| Aziza Ibroximova                                                                                                                                                                                        |      |
| KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI .....                                                                                          | 1035 |
| Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi                                                                                                                                                                    |      |
| MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA) .....                                                                    | 1043 |
| A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva                                                                                                                                                                         |      |
| TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV ..... | 1051 |
| Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich                                                                                                      |      |
| O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....                                                 | 1057 |
| Rafikova Kamila Baxtiyorovna                                                                                                                                                                            |      |
| RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLİYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI .....                                                                                                                                      | 1063 |
| Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li                                                                                                                                                                     |      |
| OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI .....                                                                                                            | 1070 |
| Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich                                                                                                                                                                     |      |
| AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....                                                                                                                               | 1077 |
| Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li                                                                                                                                                                      |      |
| BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....                                                                                                                                       | 1083 |
| Karimov Shoxrux Boydulla ugli                                                                                                                                                                           |      |
| DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024) .....                                                                                | 1087 |
| Ismailova Nilufar                                                                                                                                                                                       |      |
| TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                                                                                                                         | 1094 |
| Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li                                                                                                                                                                           |      |
| ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ .....                                                                                                             | 1099 |
| Аймухаммедова Амина Какажановна                                                                                                                                                                         |      |
| "O'ZMILLIYBANK" AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI .....                                                                                                                  | 1105 |
| Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich                                                                                                                                                                     |      |



|                                                                                                                     |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB<br>CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH..... | 1110 |
| Qodirov Bekzod Xomidjonovich                                                                                        |      |
| FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK<br>USULLARI ORQALI TAHLILI .....  | 1115 |
| O'taganova Umida Egamberdi qizi                                                                                     |      |
| MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH<br>MASALALARI .....                  | 1123 |
| Rafiyeva Madina Xusinovna                                                                                           |      |
| YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH .....                                     | 1128 |
| Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich                                                     |      |
| OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL<br>CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION..... | 1132 |
| Karimova Dilfuza Xatamjonovna                                                                                       |      |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING<br>DOLZARB YO'NALISHLARI .....        | 1138 |
| Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li                                                  |      |



# QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARNING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALISHLARI

**Batirova Raxima Abdujabbarovna**

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti  
iqtisodiyot fanlari nomzodi  
ORCID: 0009-0007-7606-2653

**Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li**

Namangan davlat texnika universiteti magistri

**Annotatsiya.** Maqolada qishloq xo'jaligida investision jarayonlarning innovasion mazmuni, jadallashuvi va dolzarb yo'nalishlari tahlil qilingan. Mazkur yo'nalishlarning zarurligi, shuningdek ulardan kutiladigan natijalar mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi va sohaning barqaror iqtisodiy rivojlanishi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, investisiya, fermer xo'jaliklari, tomorqa xo'jaliklari, zamonaviy texnologiyalar, innovasion jarayonlar, oziq-ovqat xavfsizligi, bozor munosabatlari, xorijiy tajriba, eksport.

**Abstract.** This article analyzes the acceleration and current trends of investment processes in agriculture, as well as their innovative content. The areas of innovation implementation and their expected results are examined from the perspective of the country's food security and the sustainable economic development of the industry.

**Key words:** agriculture, investment, farms, private plots, modern technologies, innovation processes, food security, market relations, international experience, export.

**Аннотация.** В статье проанализированы ускорение и актуальные направления инвестиционных процессов в сельском хозяйстве, их инновационного содержания. Направления внедрения инноваций и ожидаемые от них результаты исследуются с точки зрения продовольственной безопасности страны и устойчивого экономического развития отрасли.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, инвестиция, фермерские хозяйства, приусадебные хозяйства, современные технологии, инновационные процессы, продовольственная безопасность, рыночные отношения, зарубежный опыт, экспорт.

## KIRISH

Qishloq xo'jaligi sohasida erkin bozor munosabatlari amal qilishi doirasini izchil ravishda kengaytirib borish, shu asosda soha faoliyatini ustuvor ravishda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadlariga qaratish yo'lidan borilmoqda. Chunki globallashuv ziddiyatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning mustaqil harakatlana olishining turli jihatlarining ahamiyati ortib bormoqda (iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, energetik xavfsizlik, dori-darmonlar va tibbiyot uskunalari bilan ta'minlanganlik, ish joylarini saqlab qolish va boshqalar). Tashqi manbalar (moddiy, moliyaviy, ilmiy va boshqalar) ahamiyatini inkor etmaslik lozim bo'lsa-da, har bir mamlakat o'z muammolarini, avvalo, o'z kuchlari bilan hal qilishiga to'g'ri kelayotganligi ham ko'rinib turibdi [1].

Hozirgi paytda oziq-ovqat eksportining roli ortdi. Albatta, bu ilgari ham muhim edi. Hozirgi sharoitlarda faqat oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqa-energetik xossalrigina emas, balki ularning inson immunitetiga ta'siri jihatidan qadriligi ham e'tiborga olinmoqda. Bu omillar meva-sabzavotlar eksporti uchun yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda, ishlab chiqaruvchilarga katta bozorlarga yo'l ochilmoqda. Eksportning yangi istiqbolli yo'nalishlari rivojlanmoqda. Masalan, 2020-yilning 9 oyida mamlakatimizdan 8 720 tonna hajmdagi 9 365 ming AQSH dollari qiymatida konservalangan meva-sabzavotlar eksport qilindi. Bu 2019-yilning mos davriga nisbatan 3 607,4 tonnaga ko'p edi. 2023-yilda bu ko'rsatkich 2 mlrd AQSH dollaridan oshdi. 2025-yilda esa bu ko'rsatkich 3 mlrd AQSH dollaridan oshdi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida investitsiya jarayonlarining innovatsion mazmunini rivojlantirish masalalari iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ayniqsa, agrar sohani modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari xorijiy va mahalliy olimlarning diqqat markazida turibdi.

Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeli doirasida investitsiyalarning roli klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyalarda asoslab berilgan bo'lib, Y. Shumpeterning innovatsiya va tadbirkorlik nazariyasi investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, innovatsiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish omillarining samaradorligi oshadi va iqtisodiy tizim sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda agrar sohada investitsiyalarning innovatsion yo'naltirilganligi qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish, qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va eksport salohiyatini kengaytirishning muhim sharti sifatida qaraladi. Xususan, K. Sirojiddinov va R. S. Botirovalar tadqiqotlarida meva-sabzavot tarmog'ida investitsiya va innovatsiya uyg'unligini ta'minlash orqali ishlab chiqarish hajmlari hamda eksport imkoniyatlarini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qishloq xo'jaligida investitsiyalarning innovatsion mazmuni va uni rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlarini ilmiy asoslash maqsadida umumiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Xususan, tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, taqqoslama tahlil, statistik tahlil usullari orqali qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmlari, hosildorlik, eksport ko'rsatkichlari va investitsiya faolligi dinamikasi baholandi, mantiqiy-strukturaviy yondashuv asosida fermer xo'jaliklari, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari shakllantirildi. Metodologik yondashuvlar qishloq xo'jaligida investitsiyalarni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlarini kompleks baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda agrar sohani shartli ravishda ikkita kichik sektorga ajratish mumkin: faoliyati muayyan darajada davlat tomonidan tartibga solinadigan fermer xo'jaliklari va moliyaviy-iqtisodiy jihatdan davlatdan mustaqil faoliyat olib boruvchi mayda ishlab chiqaruvchilar (dehqon xo'jaliklari, aholi shaxsiy yordamchi xo'jaliklari). Davlat tomonidan har ikkala kichik sektorni innovatsion rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish yirik ishlab chiqarishda eng salmoqli va tezroq amaliy natijalar beradi [2].

Shu sababli davlat ilmiy dasturlari doirasida 2019–2023-yillarda umumiy qiymati 124,3 mlrd so'm bo'lgan 100 ta ilmiy loyiha moliyalashtirildi. 2024-yil boshida qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqot muassasalarida davlat dasturlari doirasida 42,3 mlrd so'mlik 81 ta loyiha bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. 2019–2022-yillarda qishloq xo'jaligi sohasida istiqbolli 15,1 mlrd so'mlik 22 ta startap loyiha moliyalashtirildi.

Agrar soha tadqiqotchilari 2023-yilda bog'dorchilik va uzumchilik yo'nalishida 6 ta, don va dukkakli ekinlar bo'yicha 8 ta yangi ishlanmalar yaratdilar, dehqonchilik va tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha 15 ta, g'o'za, sabzavotchilik hamda sholichilikda 20 ta ishlanmalar yaratildi. 2023-yilda g'o'zaning 12 ta, g'allaning 93 ta, sabzavot ekinlarining 12 ta yangi navlari yaratildi. Ikki ta sholi navi rayonlashtirildi. O'zbekistonda yaratilgan 11 ta g'o'za navi urug'liklari paxta yetishtiruvchi xorijiy davlatlarga, jumladan, Pokiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'izistonga eksport qilindi. Myanma davlatida O'zbekistonning 8 ta g'o'za navi manfaatli hamkorlik asosida sinovdan o'tkazilishi tashkil etildi [3].

2023-yilda g'allachilikda "Speed Breeding" dasturi asosida tezkor seleksiya usuli joriy etildi, bir yilda 3–4 marta duragay olish, nav yaratish muddatini uch martaga qisqartirish tizimi vujudga keldi. O'ta ertapishar "Ultra" bug'doy navi ekilib, Andijon viloyati sharoitida 25-may kuni hosili yig'ib olindi. Hosildorlik gektariga 85 sentnerni tashkil qildi. Agrotexnik muddatlar qisqarishi asosida g'alladan bo'shagan yerlarda takroriy g'o'za ekish texnologiyasi ishlab chiqildi, paxta hosili oktyabrning uchinchi o'n kunligida yig'ib olinib, hosildorlik o'rtacha 28,5 sentnerga yetkazildi.

Fermer xo'jaliklarini innovatsion rivojlantirishda o'simliklarning turli kasalliklarga chidamliligini oshirish, ularni mahalliy iqlim sharoiti va tuproq holatiga moslashtirish borasidagi ishlar markaziy o'rin egallaydi. 2023-yilda "Zang kasalliklari tahlili" laboratoriyasida bug'doyning ushbu kasallikka chidamli "Hisorak", "Bunyodkor", "Turon", "Yuksalish" navlarini yaratish va amaliyotga joriy etish ishlari nihoyasiga yetkazildi. G'allachilikda ilk bor "Bug'doyni DNK markerlari va oqsil turlari bo'yicha genetik pasportlash" yo'nalishida tadqiqotlar yo'lga qo'yildi, lalmikor maydonlarda boshqoqli va dukkakli don ekinlarini almashlab ekish tizimida tuproqqa ishlov bermasdan ekish texnologiyasi (No-till) ishlab chiqildi.



Yirik ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi va samaradorligini oshirishda xorijda yetishtiriladigan navlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda Xalqaro sholichilik instituti (IRRI)dan 521 dona, jumladan, 100 ta sho'rga, 199 ta qurg'oqchilikka chidamli, 193 ta ertapishar sholi nav namunalari olib kelinib, ularning sinovi va introduksiyasi yo'lga qo'yildi. Xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizda ilk bor "Sholidan ikki marta hosil olish texnologiyasi" joriy etildi. Bunda birinchi mavsumda gektaridan 65 sentner, takroriy ekishda esa 55 sentner hosildorlikka erishildi.

Sohada texnologik o'zgarishlar bilan bir qatorda xo'jalik-iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish jarayonlari ham izchil olib borilmoqda. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida 2030-yilga qadar qishloq xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasi sohaning erkinlashtirilishi va oziq-ovqat yo'nalganligi kuchaytirilishini nazarda tutadi. Ushbu jarayon texnologik jihatdan innovatsiyalar asosida amalga oshirilishi lozim. Mamlakatimizda 2020-yilda meva-sabzavot tarmog'ida agrosanoat integratsiyasi jarayonlarini jadallashtirish maqsadida 86 ta klaster va 125 ta kooperativ tashkil etildi. Ularning faoliyati ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardosh va tashqi bozorlarda xaridorgir oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishdan moddiy manfaatdorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Klasterlar va kooperativlar mahsulotni sotish bilan kifoyalanib qolmasdan, uni saqlash va qayta ishlashni ham tashkil etishi lozim. Natijada qo'shilgan qiymat zanjiri shakllanadi va ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishiladi [4].

Agrar sohadagi innovatsion rivojlanish qishloq aholisi farovonligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilmoqda. Bu borada davlat tomonidan aholi tomorqa xo'jaliklarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ijobiy natijalar bermoqda. Hozirgi paytda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 65–70 foizi dehqon xo'jaliklari va tomorqalarda yetishtirilmoqda.

Shu sababli qishloq xo'jaligiga oid tadqiqotlarni mahalla, xonadon va tomorqa xo'jaliklarida olib borish orqali tajriba-sinov ishlari va tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, ularning ishonchiligi va targ'ibotini kuchaytirish zarur. 2023-yil holatiga ko'ra, 5,5 million aholi tomorqasida 509 ming gektar ekin yerlari mavjud edi. Asosiy mahsulotlardan kartoshka, pomidor, karam va poliz ekinlarining 70–75 foizi, piyozning 65 foizi, sabzining 40 foizi aholi tomorqalari va dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bir oila tomorqasining o'rtacha ekin maydoni 9–10 sotixni tashkil etib, hozirda mazkur yerlardan olinayotgan o'rtacha daromad 4 mln so'mni tashkil etmoqda. Innovatsion yondashuv asosida tomorqa va xonadonlarda serdaromad ekinlar va chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish orqali daromadni 4 mln so'mdan 70–80 mln so'mgacha oshirish imkoniyati mavjud [5].

Tomorqa va xonadonlarda yangi hosildor meva-sabzavot, poliz, dorivor hamda ozuqabop ekin navlarini yetishtirish, bir necha marta hosil olish uchun vertikal issiqxona va kichik gidroponika inshootlarini o'rnatish, ular bazasida chorva, parranda, baliq va asalari boqish imkoniyati mavjud. Farg'ona vodiysi sharoitida 10 sotix tomorqada dehqonchilik yo'nalishida 4 ta — giloschilik, devor tagida anorchilik va limonchilik, qator orasidan 2 marta foydalanishni joriy qilish, 1 sotixli stellajli issiqxonada qulupnay yoki ko'katlar yetishtirish hamda chorvachilik yo'nalishida 2 bosh sog'in sigir, 50 bosh tovuq, kichik gidroponika va 2 quti asalari parvarishlash loyihalarini joylashtirish mumkin. Turli variantlar yiliga kamida 90 mln so'm daromadni ta'minlay oladi.

Ishlar samarali tashkil etilishi uchun ilmiy muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalarning tomorqa xo'jaliklarida qo'llanilishini yo'lga qo'yish juda muhim. Bunda ilmiy muassasalardan guruhlar shakllantirilishi, ularga amaliy-innovatsion grant mablag'lari ajratilishi samara beradi. Ushbu loyihalar doirasida olimlar o'z yo'nalishlari bo'yicha tomorqa va xonadonlarda kengaytirilgan ilmiy izlanishlarni bevosita olib borib, tomorqa va xonadonlarni serdaromad yangi navlar urug'i va ko'chatlari bilan ta'minlaydi hamda parvarishlanayotgan chorva va parranda zotlarini nazoratga oladi yoki mahsuldor zotlarni taklif qiladi.

Tadqiqotchilar agrotexnologiyalar, kasalliklarga qarshi kurash, oziqlantirish va parvarishlash bo'yicha xonadon hamda tomorqa egalariга uslubiy yordam ko'rsatib, turli sharoitlarda tajriba-sinov tadqiqotlarini olib boradi. Zarur hollarda kerakli vositalar (masalan, pestisidlar, mikroo'g'itlar, biostimulyatorlar, vitaminlar, dori-darmonlar, vaksinalar) bilan ta'minlab, ularning qo'llanish jarayonlarini nazoratga oladi. Xonadon egalari ham loyihaga texnik xodim va laborant sifatida jalb qilinib, belgilangan vazifalarni bajarishi uchun ish haqi belgilanadi va ularda yangi ko'nikmalar shakllantirib boriladi.

Ishni shu yo'sinda tashkil etish olimlarga tajribalar uchun keng miqyosdagi yer maydonlarida va ko'p sonli chorva-parrandalarda izlanishlar olib borish, ya'ni yangi navlar va zotlarni sinash, turli sharoitlarda o'rganish va solishtirish, tajribalar uchun ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytirish, xonadon egalari bilan kuzatuvlar va agrotexnik tadbirlarni samarali bajarish imkoniyatlarini yaratadi.

Umuman olganda, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida chorvachilikning roli ortib bormoqda va bu, birinchi navbatda, aholi farovonligining yuksalayotganligi bilan bog'liq [6]. Masalan, mustaqillik arafasida aholi jon boshiga yillik go'sht va go'sht mahsulotlari iste'moli 15 kilogrammni tashkil etgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 3 baravar yuqori. Aholi ratsionida go'sht tobora salmoqliroq o'rin egallamoqda. Bu esa bozor talabiga, talab esa narxlarga ta'sir etmay qolmaydi. Masalaning tub yechimi chorvachilikning yem-o'zuqa bazasiga borib taqaladi. Shu sababli, fikrimizcha, chorvachilik uchun yer ajratishda qoldiq tamoyilidan voz kechib, tarmoqqa unumdorligi yuqori yerlarni ajratish vaqti keldi. Yana bir muhim yo'nalish — beda maydonlarini keskin kengaytirishdir. Chunki beda poyasi yetkazib beradigan ozuqa birliklari boshqa ekinlarga nisbatan 1,5 baravar ko'p, tannarxi esa 3–4



baravar arzon. Paxta yakka-hokimligi tufayli voz kechilgan ushbu tarmoqni qayta tiklash lozim. Bada konsentratni eksportini yo'lga qo'yish ham mumkin, deb hisoblaymiz.

Mamlakatda agrar sohada olib borilayotgan islohotlar natijalari qator ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topmoqda. 2025-yilda 4 million tonna paxta yetishtirildi, hosildorlik gektaridan 70 sentnerni tashkil etdi, 8,4 million tonna g'alla yetishtirilib, hosildorlik 85 sentnerga yetdi. 3 500 fermer xo'jaligida g'alla hosildorligi gektaridan 100 sentnerdan yuqori bo'ldi. Sholi yetishtirishda guruch hisobida 1,34 million tonna hosil olinib, hosildorlik 50 sentnerni tashkil etdi. 35 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar qo'llanilib, 350 million kub metr suv tejaldi.

2023–2025-yillarda 155 ming gektarda yangi bog'lar va uzumzorlar yaratildi, shuningdek, 155 ming gektar bog'lar intensiv rejimga o'tkazildi. 2025-yilda 3,4 million tonna meva, 2 million tonna uzum va 19,5 million tonna sabzavot yetishtirildi. Meva va sabzavotlar 2025-yilda 83 ta mamlakatga eksport qilindi. 2026-yilda paxta yetishtirishni 4,5 million tonnaga, g'alla hosilini esa 10 million tonnaga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan innovatsiyalar va raqamli platformalar aholi farovonligiga hamda iqtisodiyot taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Hozirgi paytda qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari yanada kengroq va chuqurroq qo'yilmoqda hamda quyidagilarni qamrab olmoqda:

- eng muhim mahsulotlarni barqaror hajmlarda ishlab chiqarish va uni oshirib borish;
- mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini, eksportga yo'naltirilganligini saqlab qolish va kuchaytirish;
- innovatsion rivojlanish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish (yangi texnologiyalar va agrotehnika, nav almashtirish, organik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy etish, suv va energiya tejamlorligi, dehqonchilikning yuksak madaniyati);
- qishloq xo'jaligi rivojlanishini ekologik talablarga muvofiqlashtirish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Sirojiddinov I. Q., Sirojiddinov K. I. Opportunities for the development and increase of fruit, vegetable production and the export potential of the industry // Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – C. 87-90.
3. Инновационные факторы развития аграрного производства региона. - YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal, 2025-yil, sentyabr. № 9-son, c. 1109-1113
4. Botirova R., Sirojiddinov I. Liberazition is acrucial condition for creating modern agriculture in Uzbekistan. - International Journal of Research And development, march 2020, p. 200- 203.
5. Ботирова Р.А., Сирожиддинов К.И. Развитие продовольственной направленности сельскохозяйственного производства. - Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, 2019 йил, махсус сон. Хива, 2019. 36 -38бетлар.
6. Sirojiddinov K. Developing the food orientation of agricultural production and the need to develop agromarketing // Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – C. 268-272.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---